

**O'zbekistonning asosiy qishloq  
xo'jaligi mintraqalari  
Bajargan Sharipov O  
Qabul qilgan Otenov N**

**2017**

- Qishloq xo'jaligining mamlakat va xalq xo'jaligida tutgan o'rni va ahamiyati.
- Qishloq xo'jaligida yangi xo'jalik yuritish shakllari.
- Qishloq xo'jaligining moddiy texnika bazasi.
- Qishloq xo'jaligi yer fo'ndi va asosiy tarmoqlarining joylashishi.

Qishloq xo'jaligi ichida mamlakatning iqlim, er-suv va mehnat resurslaridan hamda xalqning asrlar davomida to'plagan dehqonchilik madaniyatidan unumli foydalanish negizida paxtachilik etakchi tarmoqqa aylandi.



©Aqualady/Anny

Ayni paytda g'allachilik, sholikorlik, kanopchilik, lavlagikorlik, mevachilik, tokchilik, polizchilik, sabzavotchilik sohalari, chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, xususan qorako'lchilik, echkichilik, parrandachilik, yilqichilik, tuyachilik, asalarichilik, pillachilik sohalari ham asosiy tarmoqlarga kiradi.



4-o'rinda, paxta tolasi eksporti bo'yicha 2-o'rinda (AQShdan keyin) turadi. Respublika aholisining 60% dan ziyodrog'i qishloq joylarda yashaydi. Yalpi ichki mahsulotning 26, 8%i qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. 3, 8 mln. kishi yoki respublika xalq xo'jaligidagi ish bilan band bo'lganlarning 43, 7%i qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qiladi.



Respublika qishloq xo'jaligi mahsulotining 98, 7%i iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqarilmoqda. Yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotning 60, 3% i aholining shaxsiy yordamchi xo'jaligida, 35, 8%i qishloq xo'jaligi korxonalarida va 3, 9% i fermer xo'jaliklarida yaratilmoqda. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida 1043 jamoa xo'jaligi, 31090 dehqon fermer xo'jaligi, 444 shirkatlar uyushmasi, 270 chorvachilik aktsiyadorlik jamiyati, 87 ijrachilar uyushmasi, 288 davlat xo'jaligi, 155 xo'jaliklararo korxonalar, 764 xususiylashtirilgan fermalar, 751 qurilish tashkilotlari ishlamoqda.



Respublika bo'yicha fermerlarga birkirilgan er maydoni 665, 7 ming gektarga teng bo'lib, har bir fermerga o'rtacha 21, 4 ga. er maydoni to'g'ri keladi.

Birinchi 5 yillik deb atalmish davrda sobiq Ittifoqning paxta mustaqilligi ta'minlandi. 1, 2 mln. tonna paxta xom-ashyosini yoki jamiga nisbatan 65% ini O'zbekiston etkazib berdi. Respublika qishloq xo'jaligida paxta yakka hokimligini qaror topishi oqibatida 1987 yilga kelib 2107, 7 ming gektarga yoki sug'oriladigan ekin maydonining 60% dan ko'prog'iga paxta ekildi.



1998-yil aprel oyida Oliy Majlisning XI sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Er kodeksi", "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlari qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisodiyot poydevorini yaratishga yo'l ochdi. Qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirishda dehqonlarning shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga 500 ming ga. dan ko'proq hosildor er ajratib berildi, uning umumiy maydoni 750 ming gektarga etkazildi. Davlat xo'jaliklari mulkchilikning boshqa shakllariga o'tkazildi. Islohatlarning birinchi bosqichida qishloqda fermerlar va dehqon xo'jaliklari paydo bo'ldi. Respublika 2000- yil oxirida 30 mingdan ortiq fermer xo'jaligi ishladi.





O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-avgustdagi qarori asosida qabul qilingan va tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va bajarish shartlari to'g'risida"gi Nizom mahsulot ishlab chiqarish bilan iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni bozor talablariga javob beradigan bosqichga ko'tarishda Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 18- martidagi Farmoniga muvofiq respublika komissiyasi tuzilgan. Darhaqiqat qishloq xo'jaligida islohatlar chuqurlashmas ekan, iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham bu masalani hal etish oson ko'chmaydi.

Respublikada 1999 yilda 4, 0 mln. tonna don, 0, 7 mln. tonna kartoshka, 0, 4 mln. tonna poliz, 0, 8 mln. tonna go'sht, 3, 5 mln. tonna sut, 1075, 3 mln. dona tuxum etishtirildi.


Rivojlangan mamlakatlarda aholining 3-5%ini tashkil etadigan fermerlar oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z xalqini to'la ta'minlabgina qolmay, uni boshqa davlatlarga ham eksport qiladi. Qishloqda xizmat ko'rsatish sohasini etarli darajada tashkil etish zarur, davlat dehqonlardan yordamini ayamasligi lozim. 2000- yil yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 60, 3% i aholi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida etishtirildi.



Republika agrosanoat majmuini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash, texnikasini ta'mirlash va unga injenerlik xizmatini ko'rsatishni "O'zqishloqxo'jalikta'minotta'mir" davlat-kooperativ qo'mitasi tizimida qishloq xo'jaligiga texnik xizmat ko'rsatuvchi "Agromashservis" aksionerlik uyushmasining ixtisoslashtirilgan tashkiliy xo'jalik tuzilmalari: "Qishloqxo'jalikmashta'mir" ta'mirlash zavodlari, "Agromashehtiyotqism" (ta'minot bozorlari), "Texchorvamontajservis", "Qishloq xo'jalik jihozlash bozorlari", "Maxsusta'mirlashsozlash" va boshqa birlashmalar, uyushmaning viloyat va tumanlardagi bo'linmalari olib boradi. Tizimga qarashli korxonalarda 50 nomdagi mashina va mexanizmlar ishlab chiqariladi. Mulkchilikning hamma turidagi xo'jaliklarga barcha turdagi mashinalarni etkazib beradi.



Respublika kimyo sanoati qishloq xo'jaligining o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'la qondirish quvvatiga ega. Ekinlarni zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilishning kimyoviy vositalari bilan birga, paxtachilikda biologik himoya usulidan ham foydalaniladi. O'zbekistonda 756 ta biolaboratoriya, trixogramma etkazib beruvchi mexanizatsiyalashgan liniyalar ishlaydi. Respublikada qishloq xo'jaligiga agrokimyoviy xizmat ko'rsatishni davlat-aktsionerlik birlashmasi "O'zagrokimyo ta'minot" olib boradi. 1995-1999 y. "O'zqishloqxo'jalik-ta'minot-ta'min" davlat-kooperativ qo'mitasining tuman bo'limlari negizida mulkchilikning barcha shakllaridagi mashina-traktor parklari (MTP) tashkil etish dasturi qabul qilingan. 1998 yilgacha 180 ta MTP tashkil qilingan. Bu parklar xo'jaliklaridagi mashina va mexanizmlarni keyinehalik sotib olish huquqi bilan ijaraga oladi yoki texnika xo'jaliklarda qoldiq qiymat bo'yicha MTPlarning balansiga beriladi.



**Respublika Prezidentining “Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini davlat yo’li bilan qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmonida (1996 y. 3 - mart) qishloq xo’jaligini sifatli texnika, mineral o’g’itlar, ekinlarning himoya qilishning respublika qishloq xo’jaligini rivojlantirishning kompleks dasturida ustivor vazifalar sifatida belgilangan.**

**Respublika qishloq xo’jaligining ilmiy bazasi etarli darajada rivojlangan. Ilmiy izlanishlar natijasida asosiy qishloq xo’jaligi ekinlari bo’lgan g’o’za, kanop, bug’doy, arpa, sholi, meva, uzum, kartoshka, poliz ekinlari va boshqalarning tezpishar, serhosil navlari yaratildi va ishlab chiqarishga joriy etildi. Ayniqsa paxtachilik uchun mashinalar sistemasi yaratildi, ilmiy tekshirish institutlari, tajriba stantsiyalari, tayanch punktlari tarmoqlari rivojlantirildi. O’zbekiston qishloq va suv xo’jaligi vazirligi, 15 tayanch punkti, 9 ta ekspremental bazasi va 5 ga yaqin boshqa bo’limlarida qishloq xo’jaligi, o’rmon va agrosanoat majmuining turli sohalarida nazariy va amaliy ilmiy ta’minot ishlari olib borildi. Kadrlar tayyorlash esa bir qator universitet va institutlarda olib borildi.**

O'zbekiston hududi qishloq xo'jaligi jihatidan 3 mintaqaga bo'linadi: tog' va tog' oldi mintaqasi Respublika hududining 20%-i dan ortiqrog'ini tashkil etadi. Asosan lalmikor dehqonchilik (bug'doy, arpa, no'xot, zig'ir), bog'dorchilik va tokchilik taraqqiy etgan. Bu mintaqada mavsumiy bohorgi-kuzgi yaylovlar bor. Chorvachiligi go'sht-jun etishtirishga ixtisoslashgan. Sug'orma dehqonchilik mintaqasi Respublika hududining qariyb 10%-ini tashkil etadi.



## Cho'l yaylov mintaqasi Respublika hududining 70%-ini tashkil etadi



Respublika yer fondining asosiy qismi (62%-ga yaqini) qishloq xo'jaligi yer turlari toifalariga mansub, qolgan qismi fuqarolar yerlari – tomorqa (1%), o'rmon va to'qayzorlar (3, 2%) va qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlardan (34, 2%) iborat.





Sug'oriladigan yerlar jami yer resurslarning 9, 2%ni tashkil etishiga qaramay Respublika qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan yalpi mahsulotning 98, 5%i shu yerlarda yetishtiriladi.

Respublika qishloq xo'jaligida dehqonchilik yetakchi o'rinda turadi. Dehqonchilikning qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi hissasi 49, 7%-ni tashkil etadi.



E'tiboringiz Uchun raxamat